

**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "XORAZM, JONGINAM"
HIKOYASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING BADIY TALQINI**

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti

3-bosqich talabasi

Abdurahmonova Farangiz

Annotatsiya: Mazkur maqolada iste'dodli yozuvchi, vohadoshimiz Shukur Xolmirzayevning "Xorazm, jonginam" nomli mo'jazzgina, biroq ahamiyati katta va global mazulardan biri bo'lmish - Orol fojiasi va ushbu mintaqaviy halokatning faqat bir hudud emas, balki necha kilometrlar uzoq bo'lgan qo'shni hududlarga ham salbiy ta'siri quyuc bo'yoqlarda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: global muammo, Xorazm, mentalitet, urf-ofatlar, Orol muammosi.

Annotation: This article highlights the works of the talented writer and our fellow countryman Shukur Kholmirzayev, particularly his short yet significant piece titled “*Khorezm, My Dear*”. In this work, one of the major global issues — the Aral Sea tragedy — is vividly depicted. The author illustrates not only its impact on a single region but also its negative consequences on neighboring areas located many kilometers away.

Keywords: global problem, Khorezm, mentality, traditions, Aral Sea issue.

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество талантливого писателя, нашего земляка Шукура Холмирзаева, в частности его небольшое, но значимое произведение под названием «Хорезм, душа моя». В нём ярко раскрыта одна из глобальных проблем

ilmiy –amaliy anjuman

— трагедия Аральского моря. Автор показывает, что данная экологическая катастрофа затрагивает не только один регион, но и оказывает негативное влияние на соседние территории, расположенные на значительном расстоянии.

Ключевые слова: глобальная проблема, Хорезм, менталитет, традиции, проблема Аральского моря.

O'zbek adabiyotida shunday mahoratli va tug'ma qobiliyatli yozuvchi va adiblar borki, shunday mohir yozuvchilardan biri Shukur Xolmirzayevdir. Adib turli janrlarda qalam tebratganki, uning romanlari, qissalari va pyesalari o'z davrida ham juda yuqori baholangan. Biroq har bir adibning o'z shaxiy janri, ya'ni asarlarining gultoji yoziladigan janri bo'ladi. Shukur Xolmirzayevning eng mukammal va insonni bir holatdan ikkinchi holatga, bir tuyg'udan ikkinchi tuyg'uga bemalol o'tkaza oladigan asarlari - hikoyalari misolida namoyon bo'lgan. Uning asarlarida dunyoning ideal hikoyanavislari deya tan olingan amerikalik O'Genri, buyuk rus adibi A. P. Chexov va kam so'zda ko'p ma'no anglatish kuchiga ega bo'lgan taniqli o'zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhorlar usulini ko'rish mumkin.

Adibning "Xorazm, jonginam" hikoyasi ham hajm jihatdan kichik bo'lsa-da, biroq butun dunyoga xavf solayotgan eng katta ekologik muammolardan biri Orol fojiasini ham ochib bera olgan. Darhaqiqat, ushbu fojia nafaqat mahalliy, balki butun O'zbekiston, butun dunyo va mintaqa uchun barcha o'ylashi kerak bo'lgan juda jiddiy masaladir. Hatto birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasida ushbu muammoning ayanchli oqibatlarini, xavflarini ta'kidlab butun dunyoga murojaat qilgan. Ilmiy va tadqiqiy ma'lumotlarga qaraganda, Antarktida materigida uchraydigan oq ayiqlar yungida tuz zarralari topilgan.

Bu tuz esa Orol cho'lidan ekani aniqlangan (Orol dengizining qurishi oqibatida Orol cho'lining vujudga kelishi va undan tuz va qumning uchishi kuzatiladi)

Asarda hofiz, to'ylarda qo'shiq aytadigan xorazmlik yigit Toshkentda o'qib, u yerda yashab qolgan, onasi vafot etgan, otasi yolg'iz yashaydi, hamma farzandlarini uyli- joyli qilgan. Yolg'iz o'g'li esa shaharda yashab qolgan. Ularning hovlisi qadim tarixiy obida va minoralarga boy Xivadagi Ichan qal'aga tirkab qurilgan. Biroq Qoraqalpog'istonda kechayotgan ekologik muammolarning ta'siri bu yerga ham yetib kelgan. Ya'ni hatto Xorazmdagi uylar va hovlilar ham tuzning uchishi oqibatida yemirilshni boshlagan, bunday holatda ,tabiiyki , o'z- o'zidan narxlar tushishni boshlaydi. Asar voqealari shu hodisa ustida kesishadi. Ya'ni asar qahramonlari ko'p emas, ota va yigit. Asar qahramonlarining badiiy tahliliga kelsak, asarda ota obrazi o'z urf-odatlariga sodiq, mentalitetini, an'analarini qadrlaydigan, o'zligini anglagan, o'z vatanini jon dilidan sevadigan, haqiqiy sodiqlik va chin inson obrazidir.

Yigit esa XXI asr yoshlarinining umumlashma obrazi sifatida baholangan, Ya'ni sokin va tinch qishloq muhitidan ko'ra shovqinli, ko'proq imkoniyatlarga ega deya o'ylagan shahar muhitini tanlaydigan, Vatan hissidan uzoqroq, an'ana, qadriyatlar, sadoqat kabi tushunchalarni anglamaydigan g'o'r va yosh yigit. Ular ma'naviy hayotdan ko'ra moddiy jihatlarga ko'proq e'tibor beradi, manfaatni birinchi o'ringa qo'yadi. Hatto otasining ra'yiga qaramasdan uni xafa qilib bo'lsa ham, uyning yemirilayotganini, tabiiy holki, narxining tushib borayotganini his qilib tezroq sotish payiga tushadi, otasining hislarini tushunishga harakat qilsa-da, hatto ba'zi o'rinlarda o'zi ham vatan degan tushunchalarga e'tibor bera boshlaydi, biroq baribir moddiyat ilinjida bir necha marta hovlisini sotishga harakat qiladi.

Asar orqali faqatgina ekologik muammolar oqibatida og'ir ahvolda qolgan xalqning ijtimoiy ahvolini, balki insoniy qadriyatlar manfaatlardan doimo ustunligini, yoshlar zamonaviy texnologiyalar va mashinalar oqibatida

toshbag'ir, ajdodlari qadriyatlarini tushunmaydigan bo'lib borayotgani yozuvchining mahorat bilan yozilgan kichik hikoyasida jam bo'lgan.

Asar yakunida ota o'z so'zida sobit, oxir oqibat uyni sottirmasdan vafot etadi. O'g'il esa alal-oqibat o'z xatolarini tushunadi: bu voqea, hodisalar fonida o'g'ilning ruhiyatida dinamik o'sishni kuzatish mumkin, biroq har doim ham oldimizda oqqan suvning keyinroq, ancha keyin oqib o'tib ketgandan keyingina qadriga yetar ekanmiz.

“Lekin men tug‘ilgan yurtimni qaytadan kashf etdim: u tap-taqir cho‘l, sahro bo‘lib qolgandayam – mening tuprog‘im ekan. O‘liblar ketmaymanmi o‘sha yerda!

Xorazm, jonginam.

Bu manglayi qora o‘g‘ling tag‘in bag‘ringga borayotir... Bu sayoq farzanding dunyoning ko‘p o‘yinlarini tushunmaydi: o‘yladi, o‘yladi. Kuchi shunga yetdi xolos.”¹

Xulosa qilib aytganda, inson doim ham moddiyat deya yashamasdan, uni o'sib ulg'aytirgan muqaddas joyni - kichik Vatanni e'zozlashi, ota- bobolariga munosib farzand bo'lishi, ularning qadriyatlar zanjiridagi o'z halqasini uzib tashlamasdan bu zanjirni hormay, tolmay davom ettirishi lozim. Zero, o'zligini anglamagan avloddan na jamiyatga, na davlatga, na atrofidagi yaqinlariga foyda bor. Chin insongina hayvonsifat bo'lib faqat o'zini emas, balki jamiki borliqni o'ylaydi, ularning qadriga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. www.ziyouz.com sayti
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. “Fan”. Toshkent - 2017

¹ Shukur Xolmirzayev.Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com kutubxonasi. 378-b

ilmiy –amaliy anjuman

3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. "Akademnashr".
Toshkent – 2013
4. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston". Toshkent - 2002